

BUXORO XONLIGIDA XALQARO DIPLOMATIYA

Quvondiqov Sardor To'xtasin o'g'li

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti 4-kurs talabasi

e-mail: kuvondikof@icloud.com

Annotatsiya: Quyidagi maqolada Buxoro xonligining Rossiya, Eron va Usmoniylar imperiyasi bilan olib borgan diplomatik elchilik aloqalari tarixiy manbalar asosida tahlil qilingan. Tadqiqotda xonlikning XVI–XVIII asrlardagi tashqi siyosiy faoliyati, elchilar yuborish va qabul qilish amaliyoti, savdo-iqtisodiy manfaatlarni himoya qilish yo'lidagi diplomatik missiyalar hamda har bir davlat bilan munosabatlarning o'ziga xos jihatlari yoritilgan. Shuningdek, Buxoro xonligining geosiyosiy mavqeini mustahkamlash, xalqaro maydondagi obro'sini oshirish va mintaqadagi siyosiy muvozanatni saqlash borasidagi sa'y-harakatlari ilmiy asosda tahlil etilgan. Maqola Buxoro xonligining uch yirik davlat bilan olib borgan diplomatik munosabatlarning mazmuni va tarixiy ahamiyatini ochib beradi.

Kalit so'zlar: diplomatiya, elchilik, A. Jenkinson, Usmoniylar, Gujarot, manfaatlar, siyosiy aloqalar.

Kirish.

Shayboniylar — Jo'jixon avlodidan bo'lib, dasht hududlarida yashagan ko'chmanchi o'zbek qabilalarining siyosiy-ijtimoiy hayotida muhim o'rin tutgan. Muhammad Shayboniyxon ushbu qabilalarni o'z atrofiga to'plab, markazlashtirilgan harbiy-siyosiy kuchga aylantira oldi. U XV asr oxirlarida temuriylar o'rtasidagi ichki nizolardan samarali foydalanib, Movarounnahrda birin-ketin yurishlar uyushtirdi. 1499–1500-yillardagi harbiy harakatlar natijasida Toshkent, Samarqand va Buxoro kabi yirik markazlar shayboniylar qo'liga o'tdi. 1500–1501-yillarda amalga oshirilgan hal qiluvchi janglarda Muhammad Shayboniyxon temuriy hukmdorlarni mamlakatdan siqib chiqarib, Movarounnahrda to'liq hukmronlik o'rnatdi. 1500-yil Samarqandning, 1506-yil

esa Balxning egallanishi bilan Shayboniylar davlati mustahkam tarkib topdi. Muhammad Shayboniyxon o'zini "Xon" deb e'lon qilib, markazlashgan davlat boshqaruvini yo'lga qo'yishga kirishdi. U Movarounnahrda siyosiy barqarorlikni tiklash, iqtisodiy hayotni jonlantirish va dasht qabilalarini mahalliy aholi bilan yaqinlashtirishga intildi.¹ Hokimiyatning kuchaygan davri va poytaxt Buxoro bo'lishi Ubaydullaxon nomi bilan bog'liq. U 1533-1540-yillarda Buxoro xonligida hukmronlik qiladi. U o'z davlati chegarasini Shayboniyxon davridagi sarhadlarda qayta tiklashga harakat qildi. Ayni paytda u mamlakat ichkarisidagi o'zaro kurashlar va tarqoqlikka ham barham bergan.² Buxoro xonligining diplomatiyasini esa o'z navbatida 2 ta sulola davriga bo'lib o'rganish mumkin. Chunki 2 sulola davrida 2 xil ijtimoiy tuzum va siyosiy hayot mavjud edi.

Asosiy qism. Shayboniylar davrida Buxoro xonligi ko'p davlatlar bilan elchilik aloqalarini o'rnatdi. Jumladan Hindiston, Rossiya, Eron va Turkiya bilan tashqi aloqalar o'rnatgan.³ Buxoro xonligi va Hindistonda hukmronlik qilgan Boburiylar sulolasi o'rtasidagi diplomatik munosabatlar Markaziy Osiyo tarixining muhim sahifalaridan biridir. Bu aloqalar XVI asr boshlaridan XIX asr o'rtalarigacha davom etgan bo'lib, ikki davlat o'rtasidagi siyosiy, savdo- iqtisodiy, madaniy va diniy jihatlarida o'zaro manfaatlarga asoslangan edi. Boburiylar sulolasining asoschisi Zahiriddin Muhammad Bobur Movarounnahrda chiqqani bois, Buxoro vohasidagi siyosiy jarayonlar Boburiy hukmdorlar uchun doimo ahamiyatli bo'lgan. Boburning o'zi ham Shayboniylar bilan uzoq yillar davom etgan kurashlar tufayli Hindistonga yo'l olgan, shundan keyin ikki sulola vakillari o'rtasidagi aloqalar diplomatik tus ola boshlagan.

Shayboniylar davrida Boburiylar bilan aloqalar ko'proq xayrixohlik va siyosiy vaziyatni kuzatish xarakteriga ega edi. Boburiylar Movarounnahrda vaziyatni diqqat bilan kuzatib borgan, chunki Markaziy Osiyodagi siyosiy barqarorlik Hindiston shimolidagi xavfsizlik bilan bog'liq bo'lgan.⁴ Biz buni tarixi

¹Azamat Ziyo "O'ZBEK DAVLATCHILIGI TARIXI" Toshkent "SHARQ" 2000. B.234-237.

² Akbar Zamonov "BUXORO XONLIGI TARIXI" Toshkent-2021. B.53-54

³ Bekzod Mirzayev "UBAYDULLAXON – SHAYBONIYLAR DAVLATINING HUKMDORI" Toshkent "MUMTOZ SO'Z" 2016. B.26-27

⁴M. Nuriddinov "BOBURIYLAR SULOLASI" Toshkent "FAN" 1994 B.4-18

ma'lumotlar asosida ko'rib o'tamiz. 1528-yil Bobur Agradagi elchilarni qabul qilish marosimi haqida yozar ekan, Movarounnahrda kelgan Ko'chkunchixon elchilariga chap tomondan joy berilgani, ularga Eron, Hind va boshqa yurtlardan kelgan elchilar bilan bir xil munosabatda bo'linganligini ta'kidlaydi. Bobur bu manzarani ta'riflay turib, boshqa davlat elchilarining kimligi, ularni kim yuborganligi, ularga qanday munosabatda bo'linganligi singari masalalarga to'xtalmasa ham Movarounnahrda kelgan elchilar Ko'chkunchixon, Abu Saidxon, Mehrixonim (Shayboniyxonning kelini, Temur sultonning xotini) va uning o'g'li Po'lat sultonlar tomonidan yuborilgani, ularga qanday sovg'alar ulashilganini batafsil yozib o'tgan. Buxoro xonligining Hindiston bilan diplomatik aloqalari Abdullaxon va Akbarshoh (1556-1605) davrida, ayniqsa, faollashdi. Abdullaxonning elchisi Oltamish 1572-yili Dehliga boradi. Elchi Abdullaxonning har ikkala mamlakat o'rtasida davom etib kelayotgan do'stlik aloqalarini kuchaytirish haqidagi maktubini topshirgan.

Akbar o'zbek elchisini, Gujarat yurishi muvaffaqiyatli tugagach, qabul qilgan. Akbar elchi orqali Abdullaxon nomiga yuborgan maktubida do'stlik munosabatlarini o'rnatishga rozi ekanligini bildirgan. Ko'rishimiz mumkinki, XVI asrning ikkinchi yarmida shayboniylar sulola hukmronlik yillari, ayniqsa, Abdullaxon ibn Iskandarxon davrida Buxoro xonligi bilan Boburiylar davlati o'rtasida olib borilgan elchilik munosabatlari muntazam ravishda davom etib turgan. Bunda har ikki davlat iqtisodiy va siyosiy munosabatlarining yo'lga qo'yilishida manfaatdor bo'ganligini anglash mumkin.⁵ Subhonqulixon diplomatiyasi haqida manbalarda aytilishicha, Hind elchisi bilan Buxoro xoni o'rtasida Eronga qarshi bir ittifoq tuzilgan. Subhonqulixon shu ittifoqqa suyanagan holda Xurosonni bosib olish uchun bir necha bor hujum uyushtirgan, lekin o'sha vaqtda Xiva xoni Erengxonning Buxoroga qo'shin tortib kelishi Xuroson urushining muvaffaqiyatli chiqishiga to'sqinlik qilgan.⁶ Lekin ayni Subhonqulixon davrida Balx uchun Boburiy shahzodalar bilan nizolar kelib chiqqanligi, bu

⁵ Akbar Zamonov "BUXORO XONLIGI TARIXI" Toshkent-2021. B.163-164

⁶ Akbar Zamonov, Farruh Subhonov "BUXORO XONLIGINING ASHTARXONIY HUKMDORLARI" Toshkent "BAYOZ" 2021. B.81-82

urushgacha borganligi ham tarixiy manbalarda aks etgan.

Buxoro xonligining Usmoniylar bilan aloqalari dastlab savdo elchilik bilan boshlangan bo'lsa keyinchalik, siyosiy o'rin tutgan.⁷ 1514-yil avgust oyida Usmoniylar sultoni Yovuz Salim I ning Muhammadbek orqali Ko'chkinchixonga maktub yuborgan. Usmoniylar sultoni Sulaymon va Shayboniylar hukumdori Ubaydulloxonning Eronga qarshi birgalikda kurashish maqsadida qilgan harakatlari bu davlatlar o'rtasidagi munosabatlarning kuchayishiga olib keldi. 1639-yilda Usmoniylar sultoni Murod IV Ashtarxoniylar hukumdori Imomqulixonga elchi yuborib Eronga qarshi birgalikda hujum qilishni taklif qiladi. Uning taklifiga Imomqulxon qanday javob berganligi haqida manbalarda ma'lumot uchramasa ham shunisi ma'lumki bu davrda Imomqulixon va Eron shohi Abbos o'rtasida yaxshi munosabatlar yo'lga qo'yilgan. 1690-yilda Ashtarxoniylar va Usmoniylar o'rtasidagi do'stona munosabatlarni rivojlantirish maqsadida Subxonqulixon Sulton Sulaymon II huzuriga elchilarni yuboradi. Shundan so'ng manbalarda ko'rsatilishicha sulton Ahmad II ning (1691-1695) elchisi mustafo Choush Subxonqulixon huzurida bo'lgan va ular bir qancha kelishuvlarga erishishgan.⁸

Natija va muhokamalar. Buxoro xonligi bilan Rossiya imperiyasi o'rtasida munosabatlar nizoli vaziyatlar bilan o'tdi. Chunki XIX asr o'rtalarigacha Rossiya davlati Buxoro xonligi bilan faqat savdo-elchilik munosabatlarda bo'lgan. Buxoro savdogarlari XVI-XVII asrlardayoq rus yarmarkalarida savdo qilganlar. Numizmatika va arxeologiya bo'yicha taniqli mutaxassis P. Savelyev Rossiyaning Buxoro bilan doimiy savdo aloqalariga ega bo'lishiga qaramay, Ivan Grozniy davridagi ingliz elchisi A. Jenkinson — “ikki yarim asrdan ko'proq vaqt davomida bu shaharga birorta ham yevropalik sayyoh tashrif buyurmaganligini” ta'kidlab o'tgan.⁹ Biroq siyosiy va davlatlararo munosabatlar juda qiyinchilik bilan o'rnatildi. Chunki Buxoro xonlari rus vakillarini kiritishni istamas edilar. Rossiya

⁷Professor of History “HISTORY OF THE OTTOMAN EMPIRE AND MODERN TURKEY” 2002. P.55-110

⁸Anvar Erqo'ziyev “BUXORO XONLIGI TARIXI” (o'quv qo'llanma) Namangan-2018.⁸“O'ZBEKISTON TARIXI” Toshkent “YANGI ASR AVLODI” 2003 (darslik) B.299-309

⁹Anvar Erqo'ziyev “BUXORO XONLIGI TARIXI” (o'quv qo'llanma) Namangan-2018. “O'ZBEKISTON TARIXI” Toshkent “YANGI ASR AVLODI” 2003 (darslik) B.299-309

bilan diplomatik munosabatlar va savdo aloqalari Abdullaxon II tomonidan 1585-yilda Muhammad Ali boshchiligida, 1589-yilda Do'stum boshchiligida Moskvaga yuborilgan.¹⁰ Buxoro xonligining Rossiya imperiyasi bilan o'rnatgan diplomatik munosabatlari XVI asrning ikkinchi yarmidan XIX asr oxirigacha uzluksiz davom etgan bo'lib, Markaziy Osiyoning geosiyosiy tarixida yirik ahamiyatga ega.¹¹ Bu munosabatlar dastlab savdo manfaatlari asosida boshlangan bo'lsa, keyinchalik strategik va siyosiy tus olgan. Buxoro xonlaridan Abdullaxon II (1557–1598) davrida Rossiya bilan birinchi diplomatik aloqalar yo'lga qo'yildi. Bu davrda Rossiya O'rta Osiyoga, xususan, ipak yo'li va Sharq savdosiga chiqish yo'lini izlayotgan edi. Buxoro xonligi esa shimoliy savdo yo'llarini kengaytirishdan manfaatdor bo'lgan. Buxoro xonligi va Rossiya imperiyasi o'rtasidagi diplomatik aloqalar XVI asrdagi savdo manfaatlardan boshlangan bo'lsa, asrga kelib strategik-siyosiy tus oldi. Uzoq davom etgan elchiliklar orqali Rossiya Markaziy Osiyoda o'z pozitsiyasini mustahkamlab, Buxoroni amalda protektorat davlatga aylantirdi. Bu aloqalar nafaqat siyosiy, balki iqtisodiy va madaniy jihatdan ham mintaqa tarixiga katta ta'sir ko'rsatgan.

Xulosa. Buxoro xonligining Rossiya imperiyasi va Usmoniylar imperiyasi bilan o'rnatgan diplomatik aloqalari xonlikning xalqaro maydondagi faoliyatini shakllantirgan muhim omillardan bo'ldi. Bu ikki yo'nalishning uyg'un yuritilishi Buxoro xonligiga murakkab geosiyosiy sharoitda o'z mustaqilligini saqlab qolish, mintaqadagi jarayonlarni kuzatib borish va ularga ta'sir ko'rsatish imkonini berdi. Shuning uchun ham bu diplomatik aloqalar xonlik tarixida muhim bosqich bo'lib, Markaziy Osiyoning siyosiy va madaniy hayotida o'z o'rnini qoldirgan.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Azamat Ziyov "O'ZBEK DAVLATCHILIGI TARIXI" Toshkent "SHARQ" 2000. B.234-237.
2. Akbar Zamonov "BUXORO XONLIGI TARIXI" Toshkent-2021. B.53-54

¹⁰BJ. Eshov, A.A. Odilov "O'ZBEKISTON TARIXI" Toshkent 2014. B.380-388.

¹¹Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika instituti "O'ZBEKISTON TARIXI" Toshkent-2020.

<https://scientific-jl.com/>

3. Bekzod Mirzayev “UBAYDULLAXON – SHAYBONIYLAR DAVLATINING HUKMDORI” Toshkent “MUMTOZ SO‘Z” 2016. B.26-27
4. M. Nuriddinov “BOBURIYLAR SULOLASI” Toshkent “FAN” 1994 B.4-18
5. Akbar Zamonov, Farruh Subhonov “BUXORO XONLIGINING ASHTARXONIY HUKMDORLARI” Toshkent “BAYOZ” 2021. B.81-82
6. Professor of History “HISTORY OF THE OTTOMAN EMPIRE AND MODERN TURKEY” 2002. P.55-110
7. Annvar Erqo‘ziyev “BUXORO XONLIGI TARIXI” (o‘quv qo‘llanma) Namangan-2018. “O‘ZBEKISTON TARIXI” Toshkent “YANGI ASR AVLODI” 2003 (darslik) B.299-309
8. B.J. Eshov, A.A. Odilov “O‘ZBEKISTON TARIXI” Toshkent 2014. B.380-388.
9. Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika instituti “O‘ZBEKISTON TARIXI” Toshkent-2020.